

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.24:33.M(575.1)**

YAXSHIBOYEVA LAYLO ABDISATTAROVNA

**MAHALLADA TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 - Menejment
08.00.15- Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof. Djurabayev O.D.**

Toshkent -2025

MUNDARIJA:

KIRISH		3
I BOB	MAHALLALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1.	Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlar.....	13
1.2.	Davlat tomonidan mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab – quvvatlashning institusional asoslari.....	24
1.3.	Mahallalarda tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	36
	1-bob bo'yicha xulosa.....	47
II BOB	MAHALLALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	48
2.1.	O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish tendensiyalari va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	48
2.2.	Mahallalarda aholining tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish orkali ish bilan ta'minlanganlik darajasining tahlili.....	62
2.3.	Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni mahallalarda yuritilish holatining taxlili.....	74
2.4.	O'zbekiston hunarmandchilik mahsulotlariga xorij iste'molchilarining munosabati	84
	2-bob bo'yicha xulosa.....	95
III BOB	MAHALLALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	97
3.1.	Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	97
3.2.	O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	111
3.3.	Mahallalarda tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish strategiyasi	122
	3-bob bo'yicha xulosa.....	140
	XULOSA.....	141
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	144
	ILOVALAR	154

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan o'z hududlarida tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jamoat resurslarini xususiy sektor tashabbuslari bilan faol integratsiyalashtirishga, mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga hamda aholi bandligini ko'paytirishga yordam bermoqda. "Mazkur mexanizmlar mahalliy boshqaruv va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlab, ijobiy muhit, ekologik va iqtisodiy barqarorlik yaratmoqda"¹. Sharq va G'arbdagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarining yalpi milliy mahsulotida "tadbirkorlarning ulushi 70-80 foizga chiqib qoldi. Mamlakat aholisining 70 foizidan ortiqrog'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida faoliyat ko'rsatmoqda"². Bundan ko'rinadiki, mahalliy boshqaruvning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi institutsional roli hududiy iqtisodiy o'sishni to'g'ridan to'g'ri rag'batlantiradi.

Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kichik tadbirkorlik korxonalarida yangi ish joylarini yaratish va xalq iste'moli buyumlarini ishlab chiqarish, ilmiy texnika taraqqiyotini rivojlanishida kichik tadbirkorlik korxonalarining rolini oshirish, tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish strategiyasi hamda istiqbollari tadqiq etish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning yillar davomidagi tarixiy salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Tadbirkorlik, milliy hunarmandchilik, badiiy va amaliy san'atning saqlanib qolinishi, bu millatning merosi va tarixiy an'alarini davom etilishi borasida muhim vazifalar

¹ Social Entrepreneurship and Development of Local Self-Governments – Evidence from Montenegro. (2020). Lex Localis - Journal of Local Self-Government, 18(4), 855-883. [https://doi.org/10.4335/18.3.855-883\(2020\)](https://doi.org/10.4335/18.3.855-883(2020))

² <https://whop.com/blog/entrepreneurship-statistics/>

belgilanmoqda. “Milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so‘nggi besh yilda mamlakatimizdagi usta hunarmandlar soni 7 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko‘payib, sohada band bo‘lganlar soni 230 ming nafarga yetdi. Yurtimizda mahalla tizimiga shunday vazifalar yuklatilayaptiki, odamlar bandligini ta’minlash uchun omillarni yaratish lozim. Ya’ni eng chekka hududlarda ham tadbirkorlikni rivojlantirish, sanoat korxonalarini ko‘paytirish, kichik biznesga keng yo‘l ochish, investitsiyalarni jalb etish kabi yo‘nalishlarni yanada faollashtirish talab etilmoqda”³. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi o‘z navbatida bu boradagi muammolarning ilmiy tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiya ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 1-martdagi PQ-147-son “Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-4498-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-son “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-

³ Sharipov K. A. «Mahalla – hunarmandchilik va tadbirkorlikni tashkil etishning milliy modeli» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislari to‘plami. – T.: TDIU, 2023. - 16 bet. <https://doctorant.tsue.uz/wp-content/uploads/2024/07/Mahalla---hunarmandchilik-va-tadbirkorlikni-tashkil-etishning-milliy-modeli.pdf>